

O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTI

UDC (UO‘K, УДК): 821.512.19

“SHINEL” ASARI CHO‘LPON TARJIMASIDA¹³**Abdullayeva Dildoraxon Zumratbekovna**

Andijon davlat universiteti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası professori

Filologiya fanlari doktori (DSc)

E-mail: dildor.abd@mail.ru

Orcid ID: 0009-0009-6815-1546

Islomova Sohiba Ismoiljonovna

Andijon davlat universiteti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası katta o‘qituvchisi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

E-mail: sohibaislomova@gmail.ru

Orcid ID: 0009-0005-3056-934X

ANNOTATSIYA

Maqola Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati, xususan rus yozuvchisi N.V.Gogolning “Shinel” qissasi tarjimasiga bag‘ishlangan. N.V.Gogol qissasining Cho‘lpon tomonidan amalga oshirilgan tarjimasining 1931, 1936-yillardagi nashrlari qiyosiy tahlil qilingan.

Maqoladan asosiy maqsad Cho‘lponning qissani tarjima qilishdagi mahorati, tarjima masalalari, asliyat va tarjima o‘rtasidagi ayrim farqlar va ijodiy yondashuv, tarjimada so‘z va iboralarining qo‘llanishini aniqlashdan iborat. Maqsadni amalga oshirishda Cho‘lpon tarjimonlik faoliyatining ilk bosqichi, ilk tarjima asarlarining e‘lon qilinishi, XX asrning 20-30-yillaridagi o‘zbek badiiy tarjimachilik maktabiga asos solishi, tarjimonlik faoliyatining adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilishi, rus yozuvchisi Nikolay Gogolning “Shinel” qissasi tarjimasining qanday amalga oshgani kabi vazifalar bajarildi. “Shinel” qissasi tarjimasida Cho‘lpon so‘z, so‘z birikmasi, iboralarni o‘zbek kitobxoniga tanish bo‘lgan so‘zlar bilan o‘girishga, bu bilan qissa mazmunini anglash qulay bo‘lishiga erishganligi tahlil qilingan. Shuningdek, qissa tarjimasining 1931 va 1936-yildagi nashrlaridagi farqlar hamda tarjimani o‘rgangan mutaxassislarning fikrlaridagi ayrim jihatlar haqida so‘z yuritilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Cho‘lpon tarjima asarlarining asl matni masalasi tadqiq etilishi zarur. “Shinel” qissasining tarjiması Cho‘lponning badiiy tarjima sohasidagi yetuk namunalaridan biridir.

KALIT SO‘ZLAR

Tarjima, Cho‘lpon tarjiması, Gogolning “Shinel” qissasi tarjiması, asliyat va tarjima.

Received: June 25, 2025**Accepted:** July 5, 2025**Available online:**

September 3, 2025

¹³**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Abdullayeva D., Islomova S. “Shinel” asari Cho‘lpon tarjimasida. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2025. – Vol.2, № 3(7) – B. 183-200.

“THE OVERCOAT” IN CHO‘LPON’S TRANSLATION

Abdullayeva Dildorakhon Zumratbekovna

Professor at the Department of Uzbek Literature Studies,

Andijan State University

Doctor of Philological Sciences (DSc)

E-mail: dildor.abd@mail.ru

Orcid ID: 0009-0009-6815-1546

Islomova Sohiba Ismoiljonovna

Senior Lecturer at the Department of

Uzbek Literature Studies,

Andijan State University

Doctor of Philosophy in Philological Sciences

E-mail: sohibaislomova@gmail.ru

Orcid ID: 0009-0005-3056-934X

ABSTRACT

The article is dedicated to the translation activity of Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, with particular focus on his Uzbek translation of the novella “The Overcoat” by Russian writer N.V.Gogol. A comparative analysis is conducted on the 1931 and 1936 editions of Cho‘lpon’s translation of this work.

The main purpose of the article is to examine Cho‘lpon’s skill in translating the novella, address issues related to literary translation, highlight certain differences between the source text and its translation, explore Cho‘lpon’s creative approach, and analyze the lexical and phraseological choices made in the Uzbek version. To achieve these objectives, the article explores the early stage of Cho‘lpon’s translation career, the publication of his initial translated works, his significant role in the formation of the Uzbek school of literary translation during the 1920s and 1930s, scholarly studies on his translation legacy, and the specific process through which “The Overcoat” was translated from Russian into Uzbek.

The analysis demonstrates that in his translation of “The Overcoat”, Cho‘lpon succeeded in conveying words, expressions, and idiomatic phrases using language that resonated with Uzbek readers, thereby enhancing the accessibility of the novella’s content. Furthermore, the article discusses the textual and stylistic differences observed between the 1931 and 1936 editions, as well as various scholarly perspectives on the translation’s literary and linguistic qualities.

The findings underscore the necessity of further research on the original manuscripts of Cho‘lpon’s translated works. His version of “The Overcoat” remains one of the finest examples of his mastery in literary translation and represents a valuable contribution to the development of Uzbek translation studies.

KEYWORDS

Translation, Cho‘lpon’s translation, translation of Gogol’s “The Overcoat,” original and translation.

ПОВЕСТЬ «ШИНЕЛЬ» В ПЕРЕВОДЕ ЧУЛПАНА

Абдуллаева Дилдорахон Зумратбековна

Профессор кафедры узбекского литературоведения,

Андижанский государственный университет

Доктор филологических наук (DSc)

E-mail: dildor.abd@mail.ru

Orcid ID: 0009-0009-6815-1546

Исламова Сохиба Исмоилжоновна

Старший преподаватель кафедры

узбекского литературоведения,

Андижанский государственный университет

Доктор философии по филологическим наукам (PhD)

E-mail: sohibaislomova@gmail.ru

Orcid ID: 0009-0005-3056-934X

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Статья посвящена переводческой деятельности Абдулхамида Сулеймана оглы Чулпана, в частности, его переводу повести Н.В. Гоголя «Шинель». В работе осуществлен сравнительный анализ изданий повести Н.В. Гоголя в переводе Чулпана 1931 и 1936 г.	Перевод, перевод Чулпана, перевод повести Гоголя «Шинель», оригинал и перевод.
Основная цель статьи заключается в выявлении переводческого мастерства Чулпана в контексте проблем перевода, установлении различий между оригиналом и переводом, а также изучении принципов творческого подхода автора перевода к выбору слов и выражений. Для достижения этой цели были решены следующие задачи: изучены начальный этап переводческой деятельности Чулпана, проанализированы публикации его первых переводов, прослежено становление школы узбекского художественного перевода в 20–30-е годы XX века, рассмотрены результаты исследования переводческой деятельности Чулпана литературоведами, а также осуществлен анализ того, как проходил процесс перевода повести Н.В. Гоголя «Шинель». Установлено, что в переводе повести «Шинель» Чулпан стремился использовать слова и выражения, близкие узбекскому читателю, что облегчало для узбекского читателя восприятие содержания повести. Также в работе были выявлены различия между изданиями перевода 1931 и 1936 гг. и рассмотрены некоторые аспекты мнений специалистов, изучавших этот перевод.	
Перевод повести «Шинель» является одним из высоких художественных достижений Чулпана в области перевода. В то же время его анализ показывает, что вопрос оригинального текста художественных произведений, переведенных Чулпаном, требует дальнейшего исследования.	

KIRISH

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (1897-1938) o'z davrida jahon adabiyoti durdonalarini rus tili orqali o'zbek tiliga tarjima qildi. U o'zbekchalashtirgan badiiy asarlar rang-barang mavzularda, turli janrlarda bo'lib, bu asarlarning barchasida Cho'lponni mohir tarjimon sifatida ko'rish mumkin.

Otasi Sulaymon bazzozning ma'rifatli xonadonida ta'lim va tarbiya ko'rgan Abdulhamid Cho'lpon yosh chog'idan turk, arab, fors, rus tillarini o'rganar, Tatariston, Ozarbayjon, Hindistonda chop etiladigan gazetalarni o'qib borar, Sharq va g'arb adabiyotlari bilan muntazam tanishar edi (Muhammadjonov M., 1964, 130). Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, uning badiiy ijodga qadam qo'yishi bilan badiiy tarjima sohasiga kirib kelish davri bir vaqtga to'g'ri keladi. Cho'lpon ijodiy biografiyasi tadqiq etilgan adabiyotlarda ilk ijodining boshlanishi 1912-1914-yillar deb ko'rsatiladi. Adibning badiiy tarjima sohasida ham sermahsul ijodkor bo'lganini nazarda tutadigan bo'lsak, zikr etilgan yillar tarjimachilikka kirib kelishga ham tayyorgarlik bosqichi bo'lgan deb hisoblash mumkin. Cho'lpon jahon adiblari asarlarini rus tili vositasida o'zbek tiliga o'girdi. Cho'lponshunoslar uning rus tilini o'z ona tilini qanday bilsa, ana shunday mukammal darajada bilganini qayd etadilar. Cho'lpon tarjimachilik sohasiga erta kirib kelgan va bu faoliyatni she'riy asarlar tarjimasi bilan boshlagan. Uning ilk tarjimasi haqidagi rasmiy sana 1919-yil bilan belgilanadi. Cho'lpon tarjimasidagi Ejen Pote qalamiga mansub "Baynalmilal ashulasi" "Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil, 19-oktyabr sonida chop etiladi. Ayni shu vaqtdan bir oy o'tib mazkur gazeta sahifasida Cho'lponning ikkinchi tarjimasi, ya'ni M.Kolsovning "Hoy, och kambag'al" (1919 yil, 16-noyabr) she'ri chop etilgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Cho'lpon tarjima borasidagi faoliyatini oktyabr inqilobi (1917)dan keyin boshlagan. Bu davrga kelib Cho'lponning tarjimonlik shaxsiyatida boshlang'ich asoslar, malakalar mavjud edi, albatta (Rahimov T., 1993, 24). Cho'lpon XX asrning 20-30-yillaridagi o'zbek badiiy tarjimachilik maktabiga asos solgan mahoratli tarjimondir. Uning jahon adabiyotidan o'zbek tiliga o'girilgan yuzlab she'riy, nasriy, dramatik asar tarjimalari

yuksak mahorat bilan amalga oshirilgan. Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati haqida S.Husayn o‘z davrida munosabat bildirgan, o‘zbek adabiyotshunoslaridan O.Sharafuddinov, J.Sharipov, G‘.Salomov, N.Karimov, S.Mamajonov, Sh.Turdiyev, D.Quronov, R.O‘lmasov, T.Rahimov kabilar Cho‘lpon tarjimalarini tahlilga tortganlar.

Adabiyotshunos O.Sharafuddinov ham quyidagicha yozgan edi: *“Cho‘lpon ijodiy balog‘atga yetgan palladan boshlab umrining oxirigacha tarjima ishlariga alohida e‘tibor bilan qaragan. Shunisi ajabki, yillar davomida millatchilikda ayblanib kelgan, ya‘ni millatlarni bir-biridan ajratishni, boshqalarni kamsitib, o‘z millatini ulug‘lashni maqsad qilib olishda, milliy madaniyatlar orasiga rahna solishda ayblangan Cho‘lpon boshqa hamma o‘zbek yozuvchilaridan oldinroq tarjimaning ahamiyatini tushungan va hammadan ko‘proq va xo‘broq tarjima qilgan”* (Sharafuddinov O., 1991, 99-100).

ASOSIY QISM

1930-yillardan keyingi faoliyatini Cho‘lpon asosan tarjimachilikka qaratdi. Uning jahon adabiyotidan o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimalari soni bugungacha bir yuz yigirmadan oshadi (Cho‘lpon A., 2024, 4.). Ana shunday keng ko‘lamli tarjimon ijodi namunalaridan biri rus yozuvchisi N.V.Gogolning “Shinel” qissasidir.

O‘zbek tarjimashunosligida N.V.Gogolning “Shinel” qissasi o‘zbek tiliga ilk marta Siddiqiy Ajziy 1926-yilda “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida chop etilgan (Maorif va o‘qitg‘uchi, 1926, 22-23) so‘ngra Abdulhamid Cho‘lpon tomonidan tarjima qilingan. Davrdagi tarjimachilik haqida N.Karimov so‘zlab, “Shinel” qissasi tarjimasi haqida quyidagilarni bildiradi: *“XIX asr oxiri – XX asr avvalida rus-tuzem, shuningdek, jadid maktablari uchun Saidrasul Aziziy, Asqar ibn Bayramali Kalinin, Abdulla Avloniy darslik va majmualarining yaratilishi she‘riy va nasriy tarjimaning izchil tus olishi va rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. 1917 yildan keyin esa rus adabiyoti namunalarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishiga katta e‘tibor berildi va shu davrda badiiy tarjima sohasiga qator iste‘dodli jurnalist, shoir va yozuvchilar kirib keldilar. 1922-yildan boshlab M.Yu.Lermontov, N.V.Gogol, I.S.Turgenev,*

L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, M.Gorkiy, A.Blok asarlari tarjima qilina boshladi. 1917-yildan avval Saidahmad Siddiqiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan, ammo chor oxrankasi chiyrig'idan o'tolmagan Gogolning "Shinel" qissasi, nihoyat, 1926 yilda kitobxonlar qo'liga borib tegdi" (N.Karimov, 2017, №10, 186).

Cho'lpon tomonidan qilingan tarjima esa 1931 va 1936-yillarda alohida kitob shaklida chop etilgan. Birinchi nashr Toshkent-Bakuda "O'zNashr", ya'ni O'zbekiston davlat nashriyotida chop etilgan (Gogol N. 1931). 1936-yildagi nashr Toshkentda shu nashriyotda chop etiladi (Gogol N. 1936). *Gogolning "Shinel" qissasi tarjimasi haqida so'z yuritgan mutaxassislarning 1936-yildagi nashriga tayanib fikr bildirganliklarini ko'ramiz* (Noraliyev D., 2012, №3, 67-69). Biroq, 1931-yilgi nashr ham o'ziga xosligi hamda keyingi nashr bilan ayrim farqlar borligi jihatidan e'tiborga loyiq. Mazkur ilk nashrning farqli jihati shundaki, unda Cho'lponning ko'plab so'zlar, iboralar, atama va tushunchalarga havola, izohlar beradi. Bu havola, izoh, tushuntirishlar 1936-yilda, ya'ni ikkinchi nashrda ayrim o'rinlarda tushirib qoldirilgan.

Birinchi nashrda "idora" so'ziga havola berilib, Cho'lpon tomonidan Gogol qissasidagi "departament" so'zi shunday izohlangan: *"Departamentni idora deb olmoqqa majbur bo'ldim. Hozir glavka va sektor deb aytadilar; janub turklari "doira" deydirilar g'olibo"*. Bu izoh ikkinchi nashrda tushirib qoldirilgan. Cho'lponning "idora" so'ziga bu tarzda izoh berishining sababi shundaki, qissaning birinchi jumlasidayoq rus yozuvchisining o'zi bu so'zga alohida urg'u beradi, voqeaning "bir idorada" bo'lgan, deyishni ma'qul ko'rganini tushuntiradi. Gogolning Peterburgdagi barcha mahkamalaridagi holatlar shu qissadagi kabi ekaniga ishora qilayotganini Cho'lpon o'zbek kitobxoniga yaxshiroq anglatmoqchi bo'lib, yuqoridagi izohni keltiradi.

Qissani o'rgangan D.Noraliyev ham yozuvchining idora haqidagi fikrlari bo'yicha quyidagilarni bildiradi: *"Gogol qissani "V departamente..." deb boshlaydi-da, go'yo fikridan qaytganday ko'p nuqta qo'yadi, gap aniq qaysi departament haqidaligini aytish maqbul emas deydi va buni asoslashga kirishadi. Ya'ni o'z qarorini zamondosh o'quvchisiga izohlarkan, adib bunaqa departament,*

idora va mahkamalar, lavozimu amallardan ko‘p narsa yo‘qligini ro‘kach qiladi. Aslida bunday bayon realistik tamoyil talabi bilan yuzaga kelgan” (Noraliyev D., 2012, №3, 67).

Tarjimada “shahar qo‘rboshisi”ga Cho‘lpon tomonidan berilgan havola ham ikkinchi nashrda tushirib qoldirilgan: “*Shahar mirshablarining boshlig‘i Gogol asarida kapitan-ispravnik deyilgan*”. Bunda ham Cho‘lponning o‘zbek kitobxoniga tanish bo‘lgan o‘zbekcha mansab nomi bilan tushuntirishni istaganini anglash mumkin. Xuddi shu kabi “*abadiy unvon inog‘i*” deb o‘girilgan mansab aslyatda “*Vechniy titulyarniy sovetnik*” ekani ham matn ostida keltirilgan.

Qissadagi титулярный советник – unvon kengashchisi, тайный советник – maxfiy kengashchi, действительный советник – haqiqiy kengashchi, надворный -o‘rda kengashchisi kabi mansab unvonlari birma-bir tarjima qilingan. Cho‘lpon ushbu mansab unvonlariga ham izoh berishni lozim topadi: “*Bularni aynan tarjima qilmog‘imga asardagi so‘z o‘yini sabab bo‘ldi. Титулярный тайный действительный надворный советниклар*”. Gogolning unvon nomlarini keltirishidagi kinoya shundaki, yozuvchi bunday mansab egalarining juda ko‘pligi, lekin ularning xalqqa, jamiyatga foydasi yo‘qligiga ishora qiladi.

Tarjimon qissadagi tikuvchi Grigoriyning ijtimoiy kelib chiqishini “*bir badavlatning krepostnoyi edi*” deb o‘giradi hamda satrostida izoh beradi: “*Burun zamonlarda Rusiyada mulkdor boylar va umuman oqsuyaklar tomonidan qul qatori ishlatilgan tumayoqlar*”. Grigoriyning tashqi portreti g‘ilay va yuzi cho‘tir, qo‘lida to‘da mato va ip bilan turgan holatini Ye.Uchayeva “dyavol” – shaytonga ishora deb biladi. Yoxud tikuvchi Grigoriy otasining ismi Petrovich podsho Pyotrqa ishora ekani, xuddi Buyuk Pyotr hukumat mansabdorlariga rasmiy kiyim va muomalamunosabat shakllari joriy qilganiday Grigoriy Petrovich ham Akakiy Akakievichni kiyintirgani, bu bilan esa yangi taqdirga tayyorlaganini yozadi (Учаева Е.М. 2011, 87). Mazkur mazmun qissaning ingliz tilidagi tarjimasida yo‘qolgani ta’kidlanadi. O‘zbek tilidagi tarjimada tikuvchining tasviri Cho‘lpon tomonidan quyidagicha berilgan: “Bu odam allaqaysi bir binoning to‘rtichi qavatida orqadagi qorong‘u zinadan chiqilaturgan bir joyda istiqomat qilar, harchand ko‘zlari g‘ilay va beti

cho'tir bo'lsa ham ichkilik ichmagan va miyasi o'zga savdolardan holi bo'lgan vaqtlarda, ma'murlar va boshqa har kimlarning kiyimlarini ancha hunarmandlik bilan yamab berib, shuning orqasida kun ko'rardi".

Qissaning rus tilidagi asliyatida "chinovnik"ning o'zbek tilidagi muqobili sifatida "to'ra", "to'razoda" kabi so'zlar bilan berilgan. Gogol qissada tilga olgan "kichik" va "ulug'" odamlar nisbati haqida qalam surar ekan, har bir tasvirda shu zidlanish hamda kinoyani kuzatish mumkin. Asar qahramoni Akakiy Akakiyevich "to'razoda" deyilsa-da, familiyasidanoq uning xokisor kishi ekani anglashiladi. "To'razoda" va "Bashmachkin" so'zlari ma'noviy jihatdan ziddir. Tarjimon Gogolning kinoyaviy uslubini "chinovnik"ni "to'razoda" deb o'girishida ham saqlab qoladi. Cho'lpon Bashmachkinning familiyasi "boshmoq", ya'ni "kavish" ekanini havolada izohlab o'tadi. Bizningcha, qissada keltirilayotgan mansab nomlari, qissa qahramonining familiyasi ma'nosi qo'shimcha izoh orqali o'zbek kitobxoniga yanada tushunarli bo'lishini Cho'lpon hisobga olib havolada keltirishni ma'qul ko'rgan. Havolaning matndagi ahamiyati haqida adabiyotshunos D.Quronov ta'kidlaganiday: *"Satr osti izohi ham muhim badiiy-estetik funktsiya bajara oladi", keltirilgan misollar "kompozitsion jihatdan yaxshi tashkillangan asarda bironta ham ortiqcha narsa bo'lmaydi degan qarashni yana bir bor tasdiqlaydi"* (Quronov D., 2018, 199).

Qissaning butun mohiyati ham shundaki, unda quyi va yuqori mansab kishilarining tafovuti tasvirlanadi. Xususan "Bashmachkin" familiyasi ham "gapiruvchi nom"dir. "Boshmoq", "oyoq", "kavush" kabi so'zlar ko'chma ma'noda "quyi", "past"ga ma'nodoshdir. Bu esa qissa qahramonining jamiyatdagi, jamoadagi darajasiga ham ishoradir. Qissada bu haqda quyidagicha keltiriladi: "Mana shu so'zning o'zidan ko'rinib turibdirkim, u familiya "boshmoq" so'zidan kelib chiqqandir; lekin bu so'zning "boshmoq"dan qachon, qay vaqtda va qanday kelib chiqqani to'g'risida hech bir ma'lumot yo'qdir".

Bashmachkinlarning barcha ajdodlarining etik kiyishi va odatda yilda uch marta charm soldirishi haqidagi o'rinda tarjimada etikka "rasmiy" izohlovchisi qo'shilgan. Bu esa havolada quyidagicha sharhlangan: "Bundagi rasmiy ravishda

yoziladir va oddiy ma'nosida yuradir ("rosmana odam" degandagi kabi); ruscha ofitsialnyy so'zining muqobili esa rasmiy ravishda yozilmaydir".

Biroq, Gogol asarlarining 1842 va 1902-yillardagi, keyingi boshqa nashrlarda ham "rasmiy" so'zi uchramaydi. Asliyatda bu jumla quyidagicha kelgan: *"И отец и дед и даже шурин и все совершенно Башмачкины ходили в сапогах, переменяя только раза три в год подметки"* (Gogol N.V., 1842, 251). Ehtimol, tarjimon "rasmiy etik" deb o'g'irish orqali Bashmachkinning o'zi xizmat qiladigan idoraga xos kiyinishini nazarda tutgan. Chunki Gogol so'z yuritayotgan davrda hukumat mansabdorlarining kiyimi ham uning unvonini bildirib turgan.

Qissadagi bu kabi kiyim-kechak nomlarining tarjimasi ham alohida e'tiborga loyiq. Tarjimaning birinchi nashrida plashga "keng va uzun, rido kabi narsa" deb havolada izoh berilgan bo'lsa, ikkinchi nashrda asosiy matnda "yomg'irliq" deb, so'ngra qavsda (plash) tarzida keltirilgan. Akakiy kiyib yurgan rus va nemis an'analari pogon va boshqa armiya stiliga muvofiq elementlarni o'z ichiga olgan yoqalik ko'ylak "vismundir" "podshohlik kiyimi" deb tarjima qilinadi. Shuningdek "kapet" degan ayollar kiyimiga tarjimon "xotinlarning uy ichida kiyaturgan keng ko'ylaklari" deb izoh beradi. Yoki ayollar bosh kiyimi "chepchik"ni "xotinlarning boshlarini tugal o'rayturgan bosh kiyimi" deb izohlaydi.

Bashmachkinning ko'chadagi voqea-hodisalarga e'tiborsiz ekanligi undan yosh ma'murning diqqati kuchli ekani taqqoslanib, quyidagicha tasvirlanadi: "...ko'chaning narigi betida birovning poychabog'ishi uzulib ketgan bo'lsa shuni ham ko'rmay qolmaydir". Tarjimon "poychabog'ish"ni "shimning poychasidan botinkaga tortib qo'yaturgan bog'ich, burun zamonda bo'lardi" deb izoh beradi.

Shuningdek, Cho'lpon tarjimasi orqali o'zbek kitobxoni qissada tasvirlangan jamiyat kishilarining kundalik tarzi, kiyinish madaniyati, turmush darajasi haqida tasavvur hosil qiladi: "Piyodalar ko'p ko'rinmoqqa, yaxshi kiyingan xotinlar yo'liqmoqqa boshladi. Yoqalariga kamchat tutgan erkaklar ham uchradi, zarhal berib ishlangan yog'och panjaralik oddiy chana egasi arzonfurush izvoshchilar kam ko'rinadir, aksincha, o'zi pushti barqutdan shapka kiyib, ayiq terisidan yopqich tutilgan amirkon chana haydovchi qimmatfurush izvoshchilar esa juda ko'p ko'rinar

va ko‘zlası yasag‘li mafa aravalar tegarchiklarini qor ustida qirchillatib ko‘chadan qushday uchib o‘tardilar”. Bu yerda yo‘lovchilarning tasvirlanishida ham o‘ziga xos ramzlar bor. “Yaxshi kiyingan xotinlar”ga parallel holda “yoqalariga kamchat tutgan erkaklar” keltirilsa, “arzonfurush izvoshchilar”ning ziddi “qimmatfurush izvoshchilar” tasvirlanadi. “Arzonfurush izvoshchilar”ning tasvirida ham quyi tabaqa sifatida tasavvur uyg‘otsa (zarhal berib ishlangan yog‘och panjaralik oddiy chana), qimmatfurush izvoshchilar esa dabdabali ko‘rinishga ega (o‘zi pushti barqutdan shapka kiyib, ayiq terisidan yopqich tutilgan amirkon chana; ko‘zlası yasag‘li mafa aravalar tegarchiklarini qor ustida qirchillatib ko‘chadan qushday uchib o‘tardilar”).

Qissa qahramonining tug‘ilishi va nasroniylar odatiga xos cho‘qintirish marosimi haqida Cho‘lpon: “Bizdagi beshik to‘yi kabi narsa, shunda bolaga nom qo‘yiladi” deb izohlaydi. Qissa asliyatidagi “kum” so‘zi “otaxon” deb tarjima qilingan hamda matn ostida havolada ma‘nosi, izohi tarjimon tomonidan quyidagicha berilgan: “Otaxon” – ruscha “kum” so‘zining muqobilidir. Bolani cho‘qintirish marosimida aralashgan kishi, bu “kum” so‘zining “quda” ma‘nosida ishlayturgan joylari ham bor. Biroz pastdagi “onaxon” so‘zi shuning muannasi”. Bu izohning zarurati ham shundaki, Bashmachkinning onasi u tug‘ilgandan keyin cho‘qintirish marosimiga yaxshi tayyorlangani, so‘ngra bola tuqqan onaning hali kartda (krovat – D.A., S.I.) yotgani va yonida “otaxon”, “onaxon” va boshqalar borligi keltiriladi. Odatda cho‘qintirish marosimi chaqaloq tug‘ilganidan so‘ng kamida qirq kundan keyin o‘tkazilgan. Bunday marosimdan va “cho‘qintirgan ota”, “cho‘qintirgan ona” kimlar ekanidan bexabar o‘zbek kitobxoniga krovatda yotgan, ya‘ni yaqinda farzandli bo‘lgan ayol – Bashmachkinning onasi yonida begona odamlarning turgani tushunarsiz qolishi mumkin edi. Shuning uchun bu o‘rinda tarjimon izohi zarur bo‘lib, o‘quvchining matnni to‘la mohiyati bilan tushunib, anglashiga xizmat qilgan. Cho‘lpondan boshqa ba‘zi tarjima asarlarda bu so‘z “cho‘qintirgan ota”, “cho‘qintirgan ona” tarzida qo‘llanishi kuzatiladi. Akakiyni cho‘qintirish marosimida Gogol uni yig‘lab “grimasa” qilganini yozadi. Cho‘lpon bu so‘zni “yig‘lab biram qiliqlar qildi” deb o‘giradi.

Shuningdek, Akakiy Akakievichga ism tanlashdagi o‘rinda birinchi nashrdagi “nomi tab” so‘zi ikkinchi nashrda “avliyoning nomi” tarzida to‘g‘ri o‘zgartirilgan. Chunki asar asliyatidagi “muchenik” ayni shu “avliyo” (yoki ruhoniy)ga to‘g‘ri keladi. “Muchenik Akakiy” o‘tmishda yashagan tarixiy shaxs, nasroniy ruhoniysi bo‘lib, u imperator Likiniy tomonidan nasroniylikni tadqiq etgani uchun qatl qilingan. “Muchenik”ning asl ma‘nosi azob chekuvchi bo‘lib, bu o‘rinda asar qahramonining taqdiri ham ana shu ruhoniy otaga mengzashiga ishora qiladi, desak bo‘ladi. Bundan tashqari uning otasining ismi ham Akakiy ediki, hayotning azobda o‘tishi unga otameros bo‘lganligi ko‘rinadi. Yozuvchining qahramon ismi haqidagi tushuntirishi Cho‘lpon tomonidan quyidagicha tarjima qilingan: “U kishining nomlari Akakiy Akakiyevich edi. Bu nom, balki, o‘quvchiga biroz qiziq va ataylab topilgan kabi tuyilar, lekin o‘quvchilarni inontirmoq mumkundir, u nom ataylab va izlanib topilgan emas, sharoitning o‘z taqozosi o‘shandan boshqa nom qo‘ymoqqa sira yo‘l qoldirmagan va ishning o‘zi mana shu xilda bo‘lgan edi: Akakiy Akakiyevich, agar esimiz yanglishmasa, 23-martga o‘tar kechasi tug‘ildi”. Bashmachkinning onasi o‘g‘liga ism tanlar ekan, shunday yo‘l tutadi: “Bolaning toleyi o‘zi shunaqa shekillik, bunday bo‘laturgan bo‘lsa, otasining nomini qo‘yganimiz yaxshiroq – otasining nomi Akakiy edi, bolasi ham Akakiy bo‘la qolsin”.

Bosh qahramonning tashqi portreti tarjimonlar tomonidan turli xil tarjima qilingani kuzatiladi. Ajziy: «Shul chinovnik kishi pakana bo‘ylik, yuzi cho‘tur, malla, ko‘zga ko‘rinishda so‘qur monand, chekalari burma-burma xatlar, sur bir tusda, kasalga o‘xshash edi».

Cho‘lpon: “Mana shunday qilib bir idorada ko‘p ham ulug‘ rutba sohibi bo‘lmagan bir to‘ra xizmat qilar edilar; to‘raning o‘zlari past bo‘ylik, biroz bujurnamo, biroz mallanamo, hatto biroz ko‘rnamo, peshonasi bir qadar siyqa, ikki yuzining tegrasi ajinlik va bavo sir illatiga muhtalo ekani yuzlaridan huvayda bir kishi edilar. Nachora, ayb Peterburning ob-havosida”.

X.Ahrorova: “U, past bo‘yli, biroz bujurroq va biroz mallaroq, hatto bir oz ko‘rnamo, peshonasidagi sochi bir oz to‘kilgan, yuz yonoqlari ajinlik va bavoil kasaliga muhtalo ekani yuzidan ko‘rinib turgan bir kishi edi”.

Qissaning Ajziy, Cho‘lpon, X.Ahrorovalar tomonidan qilingan tarjimalari haqida so‘z yuritir ekan, D.Noraliyev quyidagilarni bayon qiladi: “Qissaning xuddi shu o‘rinlari Cho‘lpon tomonidan ancha muvaffaqiyatli o‘girilgan: to‘raning o‘zlari past bo‘ylik, bir oz bukirnamo, bir oz mallanamo, xatto bir oz ko‘rnamo, peshonasi bir qadar siyqa, ikki yuzining tegrasi ajinlik va bavoil illatiga muhtalo ekani yuzlaridan huvayda bir kishi edilar”. Ko‘rinib turibdiki, Cho‘lpon asliyat uslubini qayta yaratishga jiddiy e‘tibor bilan qaraydi: u -namo qo‘shimchasini qo‘llab “рябоват”, “рыжеват”, “слеповат” so‘zlarini adekvat tarjima qilishga erishadi. Shuningdek, Cho‘lpon asliyatladi Ajziy tushirib ketgan sifat (с небольшой лысиной на лбу - peshonasi bir qadar siyqa)ni ham muvaffaqiyatli o‘giran” (D.Noraliyev, 2012, 68). Biroq bu o‘rinda maqola muallifi keltirgan Cho‘lpon tarjimasidagi parchada “bukirnamo” so‘zi qo‘llangan. 1931 va 1936-yilgi Cho‘lpon tarjimalarida bu so‘z “bujurnamo” (рябоват)dir.

“Shinel”ning ingliz tiliga tarjimasi bilan shug‘ullangan Ye.M.Uchayeva qahramon ismi haqida to‘xtalib, bosh qahramonning gapiruvchi ismi kitobxonga avliyo ota, shahid ketgan Akakiyga ishora bo‘lib, u orqali halimlik, xokistarlik, tobelik, taqdirga tan beruvchi bo‘lish, bandaga xos xokisorlik, uning familiyasida namoyon bo‘ladigan “quyi” bo‘lish, xonanishin va zohidligi xususiyatlarining ingliz kitobxoni uchun yopiq qolishini ta’kidlagan edi (Учаева Е.М. 2011, 87).

Qissada ismni ona tanlaganda unga “kalendar” tutqazadilar. Cho‘lpon tarjimasidagi qissaning birinchi nashrida bu so‘z “ro‘znoma” deb yozilgan, ikkinchi nashrda “taqvimnoma (kalendar)” deb to‘g‘ri o‘zgartirilgan. Bashmachkinning portreti tasvirlangan o‘rinda qissaning 1931-yilgi tarjima nashrida “Rusiya nemislari” tarzida xato birikma uchraydi. Ushbu so‘z birikmasi ikkinchi nashrda “Rossiyadagi ajnabiylarning” tarzida tuzatib ketilgan.

Bashmachkinning o‘z vazifasiga haddan ortiq berilganini Gogol shunday tasvirlaydi: “Наслаждение выражалось на лице его; некоторые буквы у него

были фавориты, до которых если он добирался, то был сам не свой: и подсмеивал, и подмигивал, и помогал губами, так-что в лице его казалось, можно было прочесть всякую букву, которую выводило перо уго”. Cho‘lpon quyidagicha tarjima qiladi: “U ishdan lazzat olganligi yuzidan bilinardi; ba’zi bir harflar unga xuddi sevgan yoriday ko‘rinar, ularga erisha qolsa, o‘z-o‘zini yo‘qotib qo‘yar, ya’ni iljayib kular, ko‘zlarini o‘ynatar, lablarini ishga solar, xullas qalami tomonidan chizilgan har bir harfni uning o‘z yuzida o‘qisa bo‘lardi”.

Boshliqlarning Akakiyga munosabati asarda sovuq, odamiylikdan yiroq bo‘lgan xulqni anglatadigan “xolodno-despoticheski” atamasi esa mohirona tarzda “Boshliqlar unga allanechuk sipohlarcha qattiq – sovuq muomala qilar edilar” deya tarjima qilingan.

Asar qahramoni Bashmachkinning hamkasblariga qarata yalingannamo so‘zlari asliyatda “я твой брат” tarzida ifodalangan. Tarjimada Cho‘lpon qahramon sajiyasidagi ana shu yalingannamolikni “men senga birodar bo‘laman-ku” tarzida, ya’ni gapdagi so‘nggi so‘zga “-ku” ta’kid yuklamasini qo‘shish orqali o‘giran. Yuqorida ta’kidlaganimizday, Bashmachkinga shahid bo‘lgan avliyo ota Akakiy ismining qo‘yilishi hamda uning yaqin birodarlariga “я твой брат” deyishi e’tiqodli kishi sifatida tasavvur hosil qiladi. Tarjimada ayni shu ma’noni kuchaytirish uchun “men senga birodar bo‘laman” deb emas, “men senga birodar bo‘laman-ku” shaklida beriladi. Bu esa o‘quvchida badiiy estetik ta’sir kuchini oshiradi.

Bashmachkinning mehmonga kelgandagi tasvir asliyatda quyidagicha: “За стеной были слышен шум и говор, которые вдруг сделались ясными и звонкими, когда отворилась дверь и вышел лакей с подносом, установленным опорожненными стаканами, сливочником и корзиною сухарей”. Cho‘lponda: “Ichkari uydan kelib turgan gap-so‘z va shovqinlar, o‘rta eshik ochilib ketgach, yana ham ochiqroq va anglashilarlik eshitilmoqqa boshladi, eshikni ochib chiqqan kishi uy egasining xizmatchisi edikim, qo‘lida bo‘shalgan stakanlar, sariq yog‘ idishlari va qand sevatchalari to‘la bir patnus bor edi”. Tarjimadan ko‘rinadiki, asliyatdagi “сухари” “qoq non” deb o‘girilishi kerak edi, lekin bu so‘z negadir “qand” so‘zi bilan almashtirilgan. Ikkinchi nashrda ham bu so‘z “qand” deb olingan.

Bashmachkin ishtirok etgan bazmdagi dasturxon asliyatda quyidagicha tasvirlangan: *“Через час подали ужин, состоявший из винегрета, холодной мякотины, паштета, кондитерских пирожков и шампанского”*. Tarjimada shunday: *“Bir soatdan so‘ng vinegret, buzoq go‘шти yaxnasi, pashtet, varaqi somsa va shampan mayidan iborat shom ovqati berdilar”*. Tarjimaning birinchi nashrida vinegret va pashtet so‘zlariga havolada izoh berilgan: *“Vinegret – har xil sabzavotlardan qaymoq va qatiqlar qo‘shilib, go‘st to‘gramlari bilan tayyorlanaturgan “salat” singari yengil taom” hamda “pashtet – xamir bilan go‘stdan iborat bir taom”*. Bunda o‘zbek kitobxonida rus oshxonasi, dasturxoni va taomnomasi haqida tasavvur hosil bo‘ladi, albatta. Lekin pashtetga berilgan izoh biroz chalkashlik tug‘diradi. Pashtet go‘st va baliq mahsulotlari qiymasiga sabzavot, ziravorlar qo‘shib tayyorlanadigan, non ustiga surtib yeyiladigan yemak hisoblanadi. “Кондитерские пирожки” esa “varaqi somsa” deb tarjima qilingan. “Кондитерские пирожки” rus va boshqa slavyan xalqlarida keng ommalashgan “ponchik”dir. Bunda oshgan xamirni yog‘da pishirib, so‘ng shakarga botirib olinadi. Shu jihati bilan o‘zbeklardagi “varaqi somsa” (“qozon somsa”)ga o‘xshab ketadi. Tarjimada “ужин” so‘zining ma‘nosi “shom ovqati” tarzida o‘girilgan.

Cho‘lpon odatda tarjimada asliyatga yaqin so‘zlarni tanlaganini kuzatsak, ba‘zan erkin, ijodiy yondashuvni ko‘ramiz. Bunda tarjimon tarjimaga olingan matndagi so‘zlarni o‘zbek kitobxoniga tanish bo‘lgan narsa-buyumlar, tushunchalar ekvivalenti bilan almashtirishni maqbul ko‘rgan deyish mumkin.

Qissaning asliyatida bosh qahramon Akakiy Akakievichning vafotidan keyin uning ruhi bilan bog‘liq g‘ayrioddiy voqealar tasvirlanadi. Biroq, Cho‘lpon tarjimasida Akakiy Akakievichning vafotidan keyin o‘rniga boshqa ma‘mur tayinlangani va “bunisi unga qaraganda bir oz baland bo‘yliroq, xati ham unikiga o‘xshagan silliq va tekis bo‘lmasdan bir oz yotiqroq va qiyshiqroq” ekanligi haqidagi jumla bilan yakunlangan, asliyatdagi Akakiy Akakievich vafotidan keyingi voqealar, Kalinka ko‘prigi bilan bog‘liq g‘ayrioddiy hodisalar tarjimada mavjud emas. Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati tahlil qilinganda, uning asarlarni to‘liq tarjima qilganini ayta olamiz. Ushbu qissadagi bosh qahramon vafotidan

keyingi voqealar Cho‘lpon qo‘lidagi nashrdan tushirib qoldirilgan yoxud tarjima nashrga berilganda qisqartirishga uchragan deb faraz qilamiz.

XULOSA

XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondir. O‘z she‘rlari bilan yangi o‘zbek she‘riyatini yangi o‘zanlarga burib yuborgan, o‘zbek romanchiligida ilk dilogiya yaratgan, o‘zbek tarjima maktabiga tamal toshi qo‘ygan, dramatik va publitsistik asarlari bilan dovuq qozongan adibning ijodiy merosi rang-barangdir. Ming yillik adabiyotimiz tarixida bu serqirra ijod sohibining o‘rni katta. U yaratgan adabiy meros ulkan bo‘lib, uning bugungi kunda ahamiyati va qiymati oshsa oshmoqdaki, kamaygani yo‘q. Cho‘lpon amalga oshirgan tarjimalarning ham salmog‘i va qiymati juda katta bo‘lib, bugungi kunda bir yuz yigirmadan oshadi.

Cho‘lpon yashagan davrda dunyoning turli joylarida siyosiy o‘zgarishlar, ijtimoiy buhronlar, taloto‘plar ro‘y berayotgan edi. Bunday o‘zgarishlar, albatta, adabiyotda ham o‘z aksini topar edi. Turkistonda shakllangan jadidchilik harakatining g‘oyalarini amalga oshirishda safning boshidagi yalovbardorlardan biri Cho‘lpon edi. Xalqning dardu alamlarini, zulm ostidagi xalq qismatini, millatning ayanchli ahvolini, erk istagidagi insonlarning hasratlarini baralla kuyladi.

Erk va ozodlik g‘oyalari nafaqat o‘z she‘rlari va hikoyalarida, balki tarjimalarda ham bo‘y ko‘rsatadi. Mahoratli tarjimon sifatida ham ijod qilgan Cho‘lpon o‘z davri muammolariga hamohang keladigan asarlarni tanladi. Cho‘lpon amalga oshirgan tarjimalarda umuminsoniy masalalar ilgari surilgan, bashariyatning ertangi kuni haqida so‘z yuritilgan. Uning yuzdan ziyod jahon adiblarining asarlarini tarjima qilishi o‘zbek xalqini turli xalqlar bilan bog‘lash uchun xizmat qildi.

Cho‘lpon XX asrda yangi hodisa bo‘lgan tarjima maktabiga asos soldi. Uning qalamidan chiqqan tarjimalar V.Shekspirning “Hamlet”, Pushkinning “Boris Godunov”, M.Gorkiyning “Ona”, N.V.Gogolning “Shinel”, I.Krilovning “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” kabi qator asarlar o‘zbek kitobxonlarini jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishtirdi. Cho‘lpon tarjima qilgan asarlarning boshqa adiblar tomonidan

qayta o'girilmagani ham uning mahoratli mutarjim bo'lganidan dalolat beradi. O'z davrida Cho'lpon R.Tagorni "Sharqni G'arb bilan bog'lovchi oltin ko'priq" deb atagan bo'lsa, bu sifatni uning o'ziga ham tatbiq etish mumkin bo'ladi.

Cho'lpon rus yozuvchisi N.V.Gogolning "Shinel" qissasini tarjima qilar ekan, so'zma-so'z (подстрочный) tarjima emas, balki badiiy tarjima yo'ldan boradi. O'zbek kitobxonini qissadagi davr voqealari bilan tanishtirishda muqobil so'z va iboralardan foydalanadi. Ayniqsa, asardagi o'zbek mental xarakteriga yot bo'lgan tushunchalarni satrosti izohi, havola va tushuntirishlar orqali anglatadi.

N.V.Gogol ijodi bilan yaqindan tanishgan Cho'lpon uning "Shinel" qissasini tarjima qilishda asliyatdagi so'z tanlanishi, uslub, gap qurilishi, iboralarning qo'llanishiga alohida e'tibor qaratib, asar mazmunini o'zbek kitobxoniga aslidagiday yetkazishga harakat qilgan. Cho'lpon tarjimalari o'zbek xalqining jahon adabiyoti bilan tanishuvida juda katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan Cho'lponning tarjimonlik mahorati boshqa tarjimonlarga ibrat maktabi vazifasini o'tay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gogol N. Shinel. Cho'lpon tarjimasi. – Toshkent-Baku, 1931. – 32 b.
2. Gogol N. Shinel. Cho'lpon tarjimasi. – Toshkent-Baku, 1936. – 47 b.
3. Гоголь Н. Шинель. Сиддикий Ажзий таржимаси // Маориф ва ўқитғучи.- 1926.- № 1-3. – Б. 22-23.
4. Каримов Н. Таржима санъати ва жаҳон адабиёти. "Жаҳон адабиёти" журнали, 2017 йил, 10-сон. – Б. 185-190.
5. Muhammadjonov M. Turmush urinishlari. – T.: O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1964. – 180 b.
6. Норалиев Д. "Шинель" қиссасининг ўзбекча таржималари ҳақида. / Илмий хабарнома, АДУ, №3 2012 йил. – Б. 67-69.
7. Рахимов Т.А. Переводческое мастерство Чулпана (На материале узб. переводов поэтич. и драм. произведений А.С.Пушкина). Дисс... канд. фил. наук. – Т., 1993. – 140 с.

8. Сочинения Николая Гоголя (Текст). Повести, 1842. с. 465.
<https://rusneb.ru/catalog/> Национальная электронная библиотека
9. Учаева Е.М. Повесть Н.В. Гоголя “Шинель” в англоязычном восприятии: проблема эквивалентности перевода художественного произведения. // Известия Саратовского университета. 2011. Т. 11. Сер. Филология. Журналистика, вып. 1. С. 82-87.
10. Cho‘lpon.Tarjimalar. (Нашрга тайёрл. Д.Абдуллаева) – Т.: Сарварпринт нашр-ти, 2024. – 248 б.
11. Sharafiddinov O. Cho‘lpon. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991. – 112 b.
12. Quronov D. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Навоий университети, 2018. – 480 б.

REFERENCES

1. Gogol, N. (1931). *Shinel* (Cho‘lpon, Trans.). Toshkent-Baku: Uznashr. P. 32.
2. Gogol, N. (1936). *Shinel* (Cho‘lpon, Trans.). Toshkent-Baku: O‘zSSR davlat nashr-ti. P. 47.
3. Gogol, N. (1926). *Shinel* (Siddiqiy Ajziy, Trans.). *Maorif va o‘qitg‘uchi*, (1-3). P. 22-23.
4. Karimov, N. (2017). The art of translation and world literature. *Jahon adabiyoti*, (10). P. 185-190.
5. Muhammadjonov, M. (1964). *Turmush urinishlari*. Tashkent: O‘zSSR Davlat Badiiy Adabiyot Nashriyoti. P. 180.
6. Noraliev, D. (2012). On the Uzbek translations of the story “Shinel.” *Ilmiy xabarnoma, ADU*, (3). P. 67–69.
7. Rahimov, T.A. (1993). *Chulpan’s translation mastery: Based on Uzbek translations of poetic and dramatic works by A. S. Pushkin* (Doctoral dissertation). Tashkent. P. 140.
8. Gogol, N. (1842). *Collected works: Stories*. Retrieved from <https://rusneb.ru/catalog/> P. 467.

9. Uchaeva, E. M. (2011). N.V.Gogol's story "Shinel" in English perception: The problem of translation equivalence of literary works. *Izvestiya Saratovskogo Universiteta: Filologiya. Zhurnalistika*, 11(1). P. 82–87.
10. Cho'lpon. (2024). *Translations* (D. Abdullaeva, Ed.). Tashkent: Sarvarprint Nashriyoti. P. 248.
11. Sharafiddinov, O. (1991). *Cho'lpon*. Tashkent: Cho'lpon. P. 112.
12. Quronov, D. (2018). *Foundations of literary theory*. Tashkent: Navoiy University. P. 480.